



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 275 sahifa.

2025-yil dekabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdulkarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLUKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddin Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	122
Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li	
MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....	128
Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	135
Yarashev Mirkomil, F.Umarov	
OROL DENGIZI INQIROZI OQIBATIDA YER DEGRADATSIYASI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH IMKONIYATLARI: QORAQALPOG'ISTON MISOLIDA (NDVI VA NDMI TAHLILI ASOSIDA)	141
Nurmatova Shahzoda, Oralbaev Bakhitjan Orintaevich, Ruziyeva Iroda Davutovna, Turotova Nigora Xolmurod qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	147
Abubakirova Xonzoda, F.U.Umarov	
ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И МОЛОДЁЖЬ: ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	154
Абдуллаев Бехзод Баходир угли, Байбобоева Фируза Набижоновна	
SUN'IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TAJRIBALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	158
Hamroyeva Dilnura G'ayrat qizi, To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li	
QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA XALQARO TASHKILOTLARNING (FAO, UNDP, IFAD) LOYIHALARI TAJRIBASI	162
Z.B.Negmatullayeva, O.Q.Xudayberdiyeva	
O'ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY O'SISH STRATEGIYASIDAGI O'RNI.....	168
Bo'riyev Behruzbek Bahodir o'g'li, Elov Dilshod Abdujabborovich	
«ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ КЛИЕНТСКОГО ОПЫТА В БАНКАХ: ИНТЕГРАЦИЯ ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ И СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»	173
Каримов Диёрбек Дилшод ўгли, Уснатдинов Миратдин Саламатдинович, Юлдашев Жамшид Аббарович	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA INFLYATSIYANING ASOSIY OMILLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI.....	182
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	188
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	
QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI.....	193
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li	
HALOL MEHMONXONALARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....	198
Farxodov Zafar Qaxramon o'g'li, Shaymanova Nigora Yusupovna	
TIJORAT BANKLARINING BARQARORLIGINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.....	203
To'rayeva O'g'iloy G'iyosovna, Dilmurodov Jurabek Ulug'bek o'g'li, Mirzayev Mirza Abdullayevich	
ФАКТОРЫ И ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПОТОКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	208
Мисс София Ёдмыанг, Рахматова Наргизахон Аъзамхоновна	
ОСОБЕННОСТИ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	214
Хайруллаев Хожиакбар, Ишонкулова Феруза Асатовна	



ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ СБЕРЕЖЕНИЯМИ И ИНВЕСТИЦИЯМИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕЙСЯ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	220
Абдумажидов Шохжохон Шухратович, Нозимов Эльдор Анварович	
ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ “ЗЕЛЁНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ” В БАНКОВСКУЮ СФЕРУ	226
Тохинова Азиза Олимжоновна, Ишонкулова Феруза Асатовна	
MOJIYAVIY HISOBOTLAR ISHONCHLILIGINI SHAKLLANTIRISHDA BUXGALTERIYA HISOB MEKANIZMLARINING AHAMIYATI	231
Jo'rayeva Risolat Shuxrat qizi, Mardonov Shaxriyor Xolmirzo o'g'li	
РАЗРАБОТКА ДОЛГОСРОЧНЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ НА ОСНОВЕ ПОВЕДЕНЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ	235
Юлдошев Бобур Бахромович, Маратова Гульшад Женгисовна, Саъдий Шукрилло Асатилло угли	
IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA KORXONALARDA EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALARI HISOB	246
Oltmishov Doniyor, Ermaxammadov Ro'zimurod, Qo'shbekova Shahnoza, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT BO'YICHA HISOBLASHUV MUOMALALARI HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY HUQUQIY ASOSLARI	249
Uralova Gavhar, Ibodova Madina, Alimov Abbos, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
MOJIYAVIY SIYOSATNING MILLIY IQTISODIYOTNING BARQARORLIGIGA TA'SIRI VLIYANIE FINANSOVOY POLITIKI NA STABIL'NOST' Natsional'noy ekonomiki THE IMPACT OF FINANCIAL POLICY ON THE STABILITY OF THE NATIONAL ECONOMY.....	253
Ismatilloev Muhridin Asliddin o'g'li, Rejapov Xayrillo Xikmatullayevich	
YASHIL TEXNOLOGIYALAR BOZORIDA AI ASOSIDAGI INNOVATSIYALARNING INVESTITSION OQIMLARGA TA'SIRI	259
Istamov Bekzodbek Bahriddinovich, Buranova Jazira Ergash kizi	
EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT	264
Urinboyev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI	269
Ismoilov Zikro Saidolimovich, G'ulamov Ilhom Akramovich	



INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSİYALARNI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI

Ismoilov Zikryo Saidolimovich

TMC instituti "Iqtisodiyot" fakulteti 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

G'ulamov Ilhom Akramovich

TMC instituti Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, v. v. b. dotsent

Elektron pochta: superhero92@list.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etishda investitsiyalarni jalb qilishning o'rni tahlil qilingan. Tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash hamda mahsulot sifatini oshirishda investitsion resurslarning ta'siri yoritilgan. Innovatsion jarayonlarni cheklovchi omillar ko'rib chiqilib, ularni bartaraf etish uchun iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari investitsiya va innovatsiya uyg'unligi orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: investitsiya, innovatsiya, qurilish materiallari sanoati, iqtisodiy mexanizmlar, texnologik modernizatsiya, raqobatbardoshlik, energiya tejamkor texnologiyalar, moliyaviy rag'batlar, eksport salohiyati, davlat-xususiy sheriklik.

Abstract: This article examines the role of attracting investments in implementing innovative technologies within construction materials industry enterprises. The impact of investment resources on improving the sector's competitiveness, enhancing production efficiency, and increasing product quality is analyzed. The study identifies the main constraints limiting innovation processes and proposes recommendations for improving economic mechanisms to overcome these barriers. The findings indicate that the integration of investment and innovation processes enables production modernization and strengthens the export potential of the industry.

Key words: investment, innovation, construction materials industry, economic mechanisms, technological modernization, competitiveness, energy-efficient technologies, financial incentives, export potential, public-private partnership.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль привлечения инвестиций в процессе внедрения инновационных технологий на предприятиях промышленности строительных материалов. Проанализировано влияние инвестиционных ресурсов на повышение конкурентоспособности отрасли, улучшение производственной эффективности и повышение качества продукции. Изучены факторы, ограничивающие инновационную активность, и предложены меры по совершенствованию экономических механизмов их устранения. Результаты исследования показывают, что сочетание инвестиционных и инновационных процессов способствует модернизации производства и расширению экспортного потенциала отрасли.

Ключевые слова: инвестиции, инновации, промышленность строительных материалов, экономические механизмы, технологическая модернизация, конкурентоспособность, энергоэффективные технологии, финансовые стимулы, экспортный потенциал, государственно-частное партнерство.

Kirish

Qurilish materiallari sanoati milliy iqtisodiyotning bugungi holati va uning rivojlanish salohiyatini belgilab beruvchi ustuvor tarmoq bo'lib, asosiy fondlarni yangilash, sanoat obyektlarini, transport va muhandislik infratuzilmasini qurish va ta'mirlash, qulay va sifatli qurilish inshootlarini barpo etishni nazarda tutadi, zarur hajmda uy-joy, o'rta va kichik aholi punktlarida bandlik, shuningdek, rivojlanish dasturlarini amalga oshirish bilan bog'liq davlat xarajatlari miqdorini belgilaydi.



Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari sanoati juda keng va o'ziga xos tarmoqdir. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda ushbu tarmoqni boshqarish uchun alohida davlat organlari (vazirlik, qo'mita, agentlik) tashkil etilgan. Ba'zi mamlakatlarda esa tarmoqning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, uning rivojlanish dinamikasi va qamroviga qarab qurilish materiallari tarmog'ini boshqarish vakolati davlat organi (vazirlik, qo'mita, agentlik) qoshidagi alohida departament (boshqarma)ga yuklatilgan.

Shuningdek, ushbu tarmoqda davlatning roli va ahamiyati kam bo'lgan mamlakatlarda (asosan rivojlangan va Yevropa mamlakatlari) qurilish materiallarining alohida turlarini qamrab olgan nodavlat uyushmalari tashkil etish holatlari kuzatiladi (masalan, keramik plitachilar, toshchilar, sementchilar uyushmalari).

Ushbu holatni to'liqroq yoritish uchun ba'zi mamlakatlarni misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin.

Qozog'iston Respublikasida qurilish materiallari sanoati Sanoat va infratuzilmani rivojlantirish vazirligi huzuridagi Qurilish va kommunal xo'jalik qo'mitasi tomonidan nazorat qilinishi belgilangan. Ushbu qo'mita qurilish, qurilish standartlari va normalarini ishlab chiqish, qurilish materiallarini ishlab chiqarishni tashkil etish bilan kompleks ravishda shug'ullanuvchi, ishchilar soni 150 nafardan ortiq bo'lgan davlat tashkiloti hisoblanadi.

Shuningdek, qo'shni mamlakatimizda "Qozog'iston qurilish materiallari sanoati uyushmasi" YUSHB (yuridik shaxslar birlashmasi) mavjud bo'lib, ular davlat tuzilmasidan alohida bo'lgan struktura hisoblanadi. Uyushma tomonidan uyushmaga a'zo korxonalarga konsalting, marketing, yuridik va boshqa xizmatlar ko'rsatib kelinadi. Uyushma tarkibiga 482 ta tashkilot a'zo. Uyushmada 100 dan ortiq xodim faoliyat yuritadi.

Qozog'istonda sanoatda qurilish materiallari tarmog'ining ulushi 6% ni tashkil etadi. Sohada 1965 ta tashkilot faoliyat yuritib, 29 mingdan ortiq ishchining bandligi ta'minlangan. 2019-yil ma'lumotlariga ko'ra, sohadagi korxonalar o'rtacha 56% quvvatlarda ishlamoqda. Soha oxirgi 11 yil davomida, ya'ni 2008–2019-yillar mobaynida, 3,3 barobarga o'sgan.¹

Yevropa mamlakatlari (Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya) — qurilish materiallari sanoatining davlat YAIM dagi ulushi va sanoatdagi o'rni yuqori bo'lishiga qaramay, ushbu mamlakatlardagi demokratik prinsiplar nuqtayi nazaridan davlat sohaning boshqaruvida bevosita ishtirok etmaydi, faqatgina qurilish yoki iqtisodiyot vazirligi kabi vazirliklar ushbu tarmoq monitoringini olib boradi.

Ushbu davlatlar azaldan dunyoda qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi hisoblanishi hamda uzoq yillik tajriba va obro'-e'tiborga ega korxonalarning mavjudligi sababli, ushbu korxonalar tomonidan ma'lumot va malaka almashish, sohadagi korxonalarni birlashtirish maqsadida alohida uyushmalar, birlashmalar va konsernlar tuzish holatlari ko'plab kuzatiladi. Misol uchun, Germaniyada Tabiiy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilari va iste'molchilari uyushmasi, Germaniya sement zavodlari uyushmasi, Italiyada Dunyo tabiiy toshchilar uyushmasi, Italiya sement ishlab chiqaruvchilar uyushmasi, Marmar va granit konsorsiumi, Ispaniyada keramik plita ishlab chiqaruvchilar uyushmasi, sanitar-texnik buyumlar ishlab chiqaruvchilar uyushmasi, Fransiya Sementchilar uyushmasi, Qurilish materiallari sanoati uyushmasi va shu kabi boshqa uyushmalar tashkil etilgan bo'lib, ular tor yo'nalishda va aniq vazifalarga asoslangan holda faoliyat yuritadi.

Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda Turkiya bilan yaqin hamkorlik aloqalari ham mustahkamlanib bormoqda. O'zbekiston iqtisodiyotining bir qator ustuvor tarmoqlari — qurilish, qurilish materiallari, energetika va qurilish materiallari ishlab chiqarishning rivojlanishini faollashtirish bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari rivojlanib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari sanoatida innovatsion rivojlanish masalasi sanoat iqtisodiyoti va investitsiyalar nazariyasida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda investitsiyalarning o'rni, ayniqsa, texnologik yangilanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot raqobatbardoshligini kuchaytirish nuqtayi nazaridan markaziy ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalarni joriy etish jarayonini tushuntirishda klassik iqtisodiy nazariyalar bilan bir qatorda zamonaviy sanoat va klaster yondashuvlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsiyalar iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida The Theory of Economic Development asarida Jozef Schumpeter tomonidan ilmiy asoslab berilgan. U innovatsiyalarni yangi mahsulotlar, yangi texnologiyalar, yangi xomashyo manbalari va ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari bilan bog'lab, kapital oqimlari aynan shu jarayonlarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv qurilish materiallari sanoati uchun ham dolzarb bo'lib, investitsiyalar innovatsion faoliyatni faollashtiruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirishda investitsiyalar va innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik The Competitive Advantage of Nations asarida Michael Porter tomonidan chuqur tahlil qilingan. Porter klaster yondashuvi orqali qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida texnologik bilimlar

¹ : <https://primeminister.kz/ru/news/v-kazahstane-obem-proizvodstva-stroitelnyh-materialov-uvlechilsya-v-33-raza-miir-rk-2161319>.



almashinuvi, innovatsion g'oyalar tarqalishi va investitsion muhitning yaxshilanishi mumkinligini asoslab beradi. Uning fikricha, investitsiyalar samaradorligi nafaqat moliyaviy resurslar hajmiga, balki institutsional muhit va raqobat darajasiga ham bog'liq.

Qurilish materiallari sanoatida texnologik modernizatsiya masalalari xalqaro miqyosda UNIDO tadqiqotlarida keng yoritilgan. UNIDO hisobotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda qurilish materiallari ishlab chiqarishida energiya tejankor texnologiyalar, chiqindisiz ishlab chiqarish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muhim manba ekanligi qayd etiladi. Ushbu investitsiyalar innovatsiyalarni tezlashtiradi va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi.

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmlari OECD tadqiqotlarida alohida e'tiborga olingan. OECD ma'lumotlariga ko'ra, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun investitsiyalar bilan bir qatorda texnologik infratuzilma, kadrlar salohiyati va davlat tomonidan rag'batlantiruvchi siyosat muhim rol o'ynaydi. Qurilish materiallari sanoatida bu omillar yangi avlod materiallari, ekologik toza mahsulotlar va yuqori qo'shilgan qiymatga ega ishlab chiqarishni rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, qurilish materiallari sanoatida innovatsiyalar va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik masalalari EBRD va World Bank tadqiqotlarida ham ko'rib chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarda kapital qo'yilmalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va logistika samaradorligini oshirish orqali sanoat korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashi ilmiy asoslangan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarni jalb qilish qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Innovatsiyalar esa, o'z navbatida, investitsiyalarning qaytishini tezlashtiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va milliy sanoatning global bozorlaridagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Bu jarayonlar o'zaro bog'liq bo'lib, ularni kompleks yondashuv asosida rivojlantirish sanoatning istiqbolli rivojlanishini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, tarmoq vazirliklari, xalqaro tashkilotlar va ochiq moliyaviy hisobotlar asosida olindi. Tahlil jarayonida statistik taqqoslash, dinamik qatorlar, korrelyatsion tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar investitsiyalar va innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Institutsional islohotlarni amalga oshirishda, investitsiya muhitini izchil yaxshilashda, yirik xorijiy investorlarni jalb qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini joriy etishda Turkiya tajribasini o'rganish va qo'llashning istiqbollari ta'kidlandi. Shu nuqtayi nazardan, kelgusida birgalikda ishlash uchun aniq yo'nalishlar, jumladan, qonun hujjatlaridagi o'zgarishlarning respublika investitsiya muhitiga ta'sirini baholash, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida texnik reglamentlar va jarayonlarni optimallashtirish, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi o'rnini yuksaltirish bo'yicha amaliy choralar belgilangan.

O'zbekistonda elektron kraudorsing platformasini yaratish uchun turk ekspertlarini jalb qilish to'g'risida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu platforma respublikada loyihalarni amalga oshirayotgan xorijiy va mahalliy ishbilarmonlarga yuzaga kelayotgan muammolar haqida onlayn rejimda xabar berish, tegishli davlat tuzilmalariga esa kelib tushgan so'rovlarga tezkor javob berish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, Turkiya va O'zbekiston kompaniyalari ishtirokida qator investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, charm-poyabzal va avtomobil sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi sohalarga yangi investorlarni jalb qilish doirasida o'zaro hamkorlik qilish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, O'zbekiston davlat organlari xodimlari uchun malaka oshirish va safarga chiqish bilan bog'liq stajirovka o'tash dasturlarini tashkil etish to'g'risida kelishuvga erishilgan.

Bugungi kunda talab etilayotgan sifatli qurilish materiallarini ishlab chiqarish turlarini kengaytirish, ichki bozorni import o'rnini bosuvchi va raqobatbardosh qurilish materiallari hamda mahalliy ishlab chiqarilgan buyumlar bilan to'ldirish muhim vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas.

Respublikamizdagi qurilish korxonalarida ishlab chiqarilgan keramik plitkalar, santexkeramika mahsulotlari, quruq qurilish aralashmalari, pishgan g'isht, tabiiy toshdan yasalgan qoplovchi buyumlar, ohak, polipropilen quvurlar, fittinglar singari qurilish materiallariga Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston bozorlarida talab ortib bormoqda. Tahlillarga ko'ra, 2016-yilda 55,3 mln dollar miqdorida materiallar eksport qilingan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 257 mln dollarga, ya'ni 4,6 barobarga oshgan. 2021-yilda esa eksport hajmi 270 mln dollarni tashkil etgan.



So'nggi to'rt yilda mamlakatimizda devorbop materiallarning vaqt bo'yicha bardoshliligi, har xil iqlim sharoitiga chidamliligi va mustahkamligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Izlanishlar natijasida mahalliy xomashyo asosida sanoat va qishloq xo'jaligi chiqindilaridan foydalanib, samarali devorbop buyumlar ishlab chiqarishning energiya tejamkor texnologiyasi yaratilgani taklif etilayotgan mahsulot tannaxining arzonlashuviga sabab bo'ldi.

Shu bilan bir qatorda, "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tomonidan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish va ushbu ko'nikmalarni respublikamizdagi korxonalarga joriy qilish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda.

"Ohangaronsement" AJ bugungi kunda "Yevrotsement" guruhi tarkibiga kiradi. Ushbu guruh Rossiyada qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi bo'lgan xalqaro sanoat xoldingi hisoblanadi. "Yevrotsement" guruhi Rossiyada va xorijda 19 ta sement zavodini, shuningdek, beton, temir-beton va metall bo'lmagan ma'dan konlarini qayta ishlash bo'yicha zavodlarni birlashtirgan bo'lib, dunyodagi eng yirik beshta xususiy sement kompaniyasidan biridir.

Xolding korxonalari yiliga 60 mln tonnadan ziyod sement va 11 mln kubometrda ortiq beton ishlab chiqarish quvvatiga ega. Metall bo'lmagan materiallar zahiralari 5,5 milliard tonnadan ziyodni tashkil etadi. 300 milliondan ortiq kishi "Yevrotsement Group" mahsulotlarining iste'molchisi hisoblanadi.

Ohangaron sement zavodi ("Ohangaronsement") O'zbekiston Respublikasi sement sanoatining yetakchi korxonalardan biridir. U mamlakat sement sanoati reytingida ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. 2006-yildan buyon "Yevrotsement Group" xolding kompaniyasi tarkibiga kiradi. To'liq nomi — "Ohangaronsement" aksiyadorlik jamiyati. Korxona Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi sanoat hududida joylashgan. Zavodning loyihaviy quvvati yiliga 2 180 000 tonna sementni tashkil etadi.

"Ohangaronsement" korxonasining tuzilmasiga Toshkent shahrining Sirg'ali tumanida joylashgan qurilish materiallari va inshootlari kombinati (JKMI) ham kiradi. Zavod 2006-yilning avgust oyida tashkil etilgan bo'lib, loyihaviy quvvati 40 ming m³ temir-beton mahsulotni tashkil etadi. JKMI keng turdagi temir-beton konstruksiyalari va beton aralashmalarini ishlab chiqaradi.

2008-yilda "Ohangaronsement" tomonidan ishlab chiqarilgan portlandsement MCHJ "O'zstandart" tomonidan "O'zbekistonning eng yaxshi mahsulotlari" diplomiga sazovor bo'ldi. 2009-yilda kompaniya "Yevrotsement" guruhining "Xoldingning eng daromadli korxonasi" nominatsiyasida mukofotni qo'lga kiritdi.

2013-yilning mart oyida "Ohangaronsement" O'zbekistondagi sement sanoati korxonalari orasida birinchi bo'lib O'z DSt ISO 14001 xalqaro standarti va O'z DSt OHSAS 18001 xalqaro standartiga muvofiq kasbiy xavfsizlik va sog'liqni saqlashni boshqarish tizimi hamda ekologik menejment tizimi bo'yicha sertifikatlandi. 2013-yilning fevral oyida O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi tomonidan o'tkazilgan "Mehnat muhofazasini tashkil etish bo'yicha eng yaxshi korxona" tanlovida birinchi o'rinni egalladi.

2013-yilda "Yevrotsement guruhi xoldingining eng yaxshi korxonasi" musobaqasida "Ohangaronsement" uchinchi o'rinni, 2014–2017-yillar davomida esa birinchi o'rinni egalladi.

2016-yilning aprel oyida "Ohangaronsement" sifat menejmenti tizimi bo'yicha ISO 9001:2015 xalqaro sertifikatiga ega bo'ldi.

Hozirgi kunda kompaniya sement ishlab chiqarish bo'yicha yangi texnologik liniyani qurish uchun sarmoyalarni amalga oshirish ustida ish olib bormoqda. Ushbu liniya kuniga 6 000 tonna klinker ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, energiya tejamkor va ekologik toza "quruq" usulda faoliyat yuritadi (1-jadval).

1-jadval. Asosiy turdagi qurilish materiallariga bo'lgan talab va uning qoplanish dinamikasi²

T/r	Qurilish materiallari	2020-yil	2026-yil				
		Ishlab chiqarish	Ishlab chiqarish	2020-yilga nisbatan o'sish	Talab	Ta'minlan-ganlik	2026-yilda 2020-yilga nisbatan ta'minlan-ganlik dinamikasi
1	Gazbeton bloklari, ming kub m	1 400	7 200	5,1	4 800	150%	2,9 baravar
2	Quruq qurilish aralashmasi, ming tonna	490	2 400	4,9	1 800	133%	1,3 baravar
3	Issiqlik saqlovchi izolyatsiya materiallari, ming tonna	60,2	280	4,7	190	147%	2 baravar

2 Manba: "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi iqtisodiy tahlil va prognozlashtirish boshqarmasi ma'lumotlari.



4	O'ramli yumshoq tom yopqich materiallari, mln kv m	13,6	50	3,7	37	135%	1,5 baravar
5	Oboy (gulqog'oz), ming o'ram	2 000	6 900	3,5	9 000	77%	2,6 baravar
6	Tabiiy pardozbop toshlar (granit, marmar va boshq.), ming tonna	2 040	4 500	2	4 150	108%	1,1 baravar
7	Qurilish oynasi, mln kv m	20,3	50	2,5	45,5	110%	1,6 baravar
8	Ohak, ming tonna	370	700	1,9	490	143%	1,02 baravar
9	Keramik plitkalar, mln kv m	20,6	35	1,7	30,5	115%	1,1 baravar
10	Laminatlangan yog'och-payraxali plitalar (LDSP), ming kub m	210	430	1,7	820	52%	3,7 baravar
11	Sement, ming tonna	12 537	20 600	1,6	20 100	103%	1,2 baravar
12	Pishgan g'isht, mln dona	1 500	300	0,2	300	100%	0,9 baravar

Eng muhimi, 2022-yilda investitsiya yo'nalishi bo'yicha ham izchil ishlar amalga oshiriladi. Xususan, tarmoq bo'yicha jami 1 mlrd 400 mln dollarlik, shu jumladan 1 mlrd 160 mln dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilmoqda. Shundan, Uyushma bo'yicha investitsiya dasturiga asosan 369,4 mln dollarlik 12 ta loyihani ishga tushirish va 1035 ta yangi ish o'rinlari tashkil etish ko'zda tutilgan.

Natijada, 1,8 mln tonna sement klinkeri, 29 mln kv metr keramik plitka, 1,1 mln tonna sement, 850 ming kub metr gazobeton bloklari, 300 ming kv metr marmar kompozit plitalar, 3,5 ming tonna burama mixlar, 50 ming tonna temir-beton buyumlari va asfalt, 2,8 mln kv metr keramik plitka va frizlar ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar yaratiladi.

Shu bilan birga, 2022-yilda 500 mln dollarlik eksport amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo'lib, jumladan 340 ming tonna sement (20 mln dollar), 80 mln dollarlik PVX profil, truba va plastmassa mahsulotlari, 30 mln dollarlik quruq qurilish qorishmalari va sement mahsulotlari, 15 mln dollarlik qurilish xizmatlari hamda boshqa turdagi qurilish materiallari eksport qilinadi.

Respublikaning 8 ta tumanida xom ashyoni qazib olishdan uni qayta ishlash, laboratoriya tekshiruvdan o'tkazish, tayyor qurilish va pardozbop materiallar ishlab chiqarishgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi qurilish materiallari klasterlarini tashkil etish hamda 16 ta tuman va shaharda boshqa hududlar bilan sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'yish orqali qurilish materiallari ishlab chiqarilishini tashkil etish belgilangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalarni jalb qilish qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsiyalarni joriy etishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalar hisobiga ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, ilg'or va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, innovatsion yechimlarni qo'llash ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish esa zamonaviy boshqaruv tajribasi, yangi texnologiyalar va innovatsion madaniyatning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, qurilish materiallari sanoati korxonalarida innovatsion rivojlanishni ta'minlash maqsadida qator takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, investitsion muhitni yanada yaxshilash, soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish orqali mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish zarur. Ikkinchidan, ilmiy-tadqiqot muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish lozim. Uchinchidan, energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan investitsion loyihalarni davlat tomonidan



qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash va ularning innovatsion faoliyatdagi ishtirokini rag'batlantirish orqali qurilish materiallari sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Ўзсаноатқурилишматериаллари" уюшмаси қошидаги Тармоқ илмий-техник кенгаши маълумотлари.
2. "Ўзсаноатқурилишматериаллари" уюшмаси ва "ЎзқурилишматериалЛИТИ" МЧЖ илмий-тадқиқот ва инжиниринг маркази маълумотлари.
3. "Инновацион қурилиш материаллари ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг долзарб муаммолари ва ечимлари" мавзусидаги Республика анжумани. "Ўзсаноатқурилишматериаллари" уюшмаси. Тошкент, 2020 йил 25 декабрь. Тошкент, 2021 йил.
4. Ўзбекистон Республикаси Қурилиш вазирлиги, Тошкент архитектура-қурилиш институти. "Инновацион технологиялар в производстве строительных материалов и конструкций". Халқаро симпозиум материаллари, 2020 йил 27–28 ноябрь.
5. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. – London: Macmillan Press, 1990.
6. Dunning J. International Production and the Multinational Enterprise. – London: Routledge, 1981.
7. Pearce D., Turner R. Economics of Natural Resources and the Environment. – New York: Johns Hopkins Univ. Press, 1990.
8. Goldin I., Reinert K. Globalization for Development. – Oxford: Oxford University Press, 2006.
9. World Bank. Industrial Competitiveness Report. – Washington D.C.: World Bank Publications, 2020.
10. International Cement Association. Global Cement Report. – London: ICR Publishing, 2023.
11. European Bank for Reconstruction and Development. Transition Report. – London: EBRD, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
